

## 12-§. Amaliy mashg'ulot

### Aholi harakati, tarkibi va joylashuviga oid masalalar

1 Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib davlatlar aholisi zichligini hisoblang:

- a **Kolumbiya:** maydoni — 1138,9 ming km<sup>2</sup>, aholisining soni — 51,3 mln kishi;
- b **Buyuk Britaniya:** maydoni — 243,8 ming km<sup>2</sup>, aholisining soni — 67,2 mln kishi;
- d **Qozog'iston:** maydoni — 2724,9 ming km<sup>2</sup>, aholisining soni — 18,7 mln kishi;
- e **Gana:** maydoni — 238,5 ming km<sup>2</sup>, aholisining soni — 31,1 mln kishi;

2 Berilgan sonlar asosida noma'lum kattaliklarni hisoblab, quyidagi jadvalni to'ldiring.

Davlatlar	Jami aholisi, mln kishi	Shahar aholisi soni, mln kishi	Urbanizatsiya darajasi, %	Qishloq aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi ulushi, %
Meksika	...	93,3	73	...	...
JAR	...	39,9	...	19,7	...
Myanma	54,7	...	...	38,3	...
Avstriya	8,9	...	59	...	...
Urugvay	...	3,3	...	...	5

3 Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib davlatlar aholisining 2020-yildagi tabiiy, migratsion va umumiy ko'payishi hamda 1.01.2021-yil holatiga ko'ra sonini hisoblang.

Davlatlar	1.01.2020-y. holatiga ko'ra aholi soni, ming kishi	2020-yilda tug'ilganlar soni, ming kishi	2020-yilda o'lganlar soni, ming kishi	2020-yilda ko'chib kelganlar soni, ming kishi	2020-yilda ko'chib ketganlar soni, ming kishi
Latviya	1907,7	17,5	28,9	8,8	12
Qirg'iziston	6523,5	158,1	40	1	5,8

4 Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib berilgan davlatlar aholisining yosh tarkibidagi tafovutlarni aniqlang va bu tafovutlarning sabablarini izohlashga harakat qiling.

Ko'rsatkichlar	Davlatlar		
	Belgiya	Mozambik	Saudiya Arabistoni
0–14 yoshdagi aholining salmog'i, %	17	46	25
15–64 yoshdagi aholining salmog'i, %	64	51	72
65+ yoshdagi aholining salmog'i, %	19	3	3
Tug'ilish, 1000 kishiga nisbatan	10	39	15
O'rtacha umr ko'rish, yosh	82	55	78
Migratsion ko'payish, 1000 kishiga nisbatan	4	-2	12